



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 4 (6)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**4**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

**MUNDARIJA**

<b>Юлдашев Ш.Г.</b> Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	<b>8</b>
<b>Mamatov B.S.</b> Foreign investment is an important factor of economic growth.....	<b>15</b>
<b>Raximova K.N.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	<b>22</b>
<b>Karimov Sh.X.</b> Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	<b>26</b>
<b>Raximov D.Sh.</b> To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	<b>30</b>
<b>Rashidova K.</b> Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	<b>32</b>
<b>Хакимов Д.Р.</b> Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	<b>37</b>
<b>Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N.</b> O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	<b>42</b>
<b>Valikulov Sh.Z.</b> O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	<b>48</b>
<b>Ganieva L.S.</b> Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	<b>52</b>
<b>Axrorova N.U.</b> Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	<b>56</b>
<b>Kamilova A.N.</b> Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	<b>61</b>
<b>Umurzakova Z.S.</b> Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	<b>66</b>
<b>Abdiyeva D.K.</b> Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	<b>69</b>
<b>Xalimova N.J.</b> Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	<b>74</b>
<b>Maxramova N.Y.</b> Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	<b>78</b>
<b>Zaxirova G., Shavkatova N.O’.</b> O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	<b>82</b>
<b>Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H.</b> Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	<b>86</b>
<b>Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A.</b> Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlari tahlili.....	<b>89</b>
<b>Xasanov I.M.</b> O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	<b>94</b>
<b>Abdullayev M.G’.</b> Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	<b>101</b>
<b>Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К.</b> Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	<b>105</b>
<b>Абдуғаниев Ё.Ж.</b> Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	<b>112</b>
<b>Xusanboyeva T.M.</b> Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	<b>116</b>
<b>Xashimova S.N.</b> O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	<b>120</b>
<b>Mitillayev I.T.</b> Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	<b>124</b>
<b>Бобоқулова М.Ғ.</b> Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	<b>127</b>
<b>Bekberganova M.R.</b> “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	<b>134</b>
<b>Рахимова М.Ш.</b> Модернизация системы социальной защиты.....	<b>138</b>
<b>Oqboyev A.R.</b> Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	<b>142</b>
<b>Djumanova R.F.</b> Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	<b>147</b>
<b>Mamatov B.S., Umurzakova M.N.</b> Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimpursasiya va foydalanish shartlari.....	<b>154</b>
<b>Ешимбетов У.Х.</b> Қишлоқ хўжалигини худудий ташкил этиш ва ихтисослаштиришнинг илмий асослари.....	<b>158</b>
<b>Xodjaeva F.K.</b> Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	<b>167</b>
<b>Yusupova M.</b> Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	<b>171</b>
<b>Abduxalilov B.Z.</b> O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	<b>175</b>
<b>Abdisamatov A.A.</b> Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	<b>178</b>

<b>Abdusalomov I.J.</b> Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta’siri.....	<b>182</b>
<b>Amirov L.F., Sokhibjonova S.S.</b> Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	<b>185</b>
<b>Boltaxo‘jayeva I.O‘.</b> Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	<b>191</b>
<b>Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G.</b> Korxonalarda bo‘nak to‘lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta’siri va ularni optimallashtirish bo‘yicha tahliliy yondashuvlar.....	<b>195</b>
<b>Isoqova M.A.</b> O‘zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	<b>199</b>
<b>Mamadaliyev B., Teshaboyev J.</b> Korxonalarda mehnatga haq to‘lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo‘llari.....	<b>202</b>
<b>Poziljonov M., Teshaboyev X.</b> Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	<b>206</b>
<b>Rustamova F.A.</b> Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	<b>209</b>
<b>Tursunboyev Q.O.</b> Transport xizmatlari ko‘rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	<b>213</b>
<b>Umarov T.S.</b> Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellashtirish va prognozlash.....	<b>216</b>
<b>Xo‘jaliyev A.O., Avilov N.</b> Moliyaviy natijalar hisobi va auditida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	<b>220</b>
<b>Xomidov T.T., Arziboyeva R.S.</b> Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	<b>223</b>
<b>Xusainov M.</b> Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	<b>227</b>
<b>Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R.</b> Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	<b>231</b>
<b>Gulimboyev S.I.</b> Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	<b>235</b>
<b>Ibodov J.Q.</b> Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo‘g‘inlari.....	<b>239</b>
<b>Jumabayeva K.B.</b> Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	<b>243</b>
<b>Khusanova Z.R., Yo‘ldasheva Z.U.</b> Global trends in the development of international tourism services....	<b>249</b>
<b>Sadullayev M.D.</b> Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	<b>252</b>
<b>Tilabov N.T.</b> Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	<b>256</b>
<b>Toshtemirov Y.N.</b> O‘zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	<b>264</b>
<b>Toshtemirova Z.M.</b> Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	<b>268</b>
<b>Uralov E.O.</b> Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	<b>273</b>
<b>Xursanova F.Sh.</b> Budjetlararo munosabatlarining iqtisodiy mazmuni.....	<b>278</b>
<b>Yuldasheva G.A.</b> Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli.....	<b>282</b>
<b>Абдуллаева Р.</b> Тadbirkorlikning zamonaviy kuryunishlari.....	<b>287</b>
<b>Юлдашев А.</b> Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари.....	<b>292</b>
<b>Abdumalikova Z., Razakova B.S.</b> O‘zbekiston sug‘urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo‘nalishlar.....	<b>294</b>
<b>Azimov B.F.</b> Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	<b>300</b>
<b>Begaliyeva M.A.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	<b>304</b>
<b>Dawletmuratov A.M.</b> Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko‘paytirish mexanizmlari.....	<b>308</b>
<b>Karimova L.S., Jabborov A.A.</b> O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	<b>313</b>
<b>Maxmudov F.U.</b> Oliy ta’lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	<b>319</b>
<b>Navruz-zoda L.B.</b> Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo‘lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	<b>323</b>
<b>Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T.</b> Chorvachilik tarmog‘ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	<b>327</b>

<b>Nurmirezayeva N.R.</b> Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	<b>331</b>
<b>Rahimov A.M.</b> Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	<b>335</b>
<b>Ibragimova G.S.</b> Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	<b>339</b>
<b>Ravshanova M.M.</b> Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	<b>343</b>
<b>Ro‘ziboyeva M.</b> O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	<b>347</b>
<b>Saidova F.K., O‘rozov Sh.</b> Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	<b>350</b>
<b>Sultonov S.N.</b> Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	<b>354</b>
<b>Sultonova D.U.</b> Korxonada iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	<b>358</b>
<b>To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z.</b> Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiri.....	<b>362</b>
<b>Tursunova N.U.</b> Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	<b>368</b>
<b>Акрамова Г.А.</b> «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	<b>374</b>
<b>Болтаев Ж.А.</b> Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	<b>379</b>
<b>Жунайдуллаев М.А.</b> Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	<b>384</b>
<b>Митрушова М.Л.</b> Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	<b>388</b>
<b>Муродов О.У.</b> Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	<b>392</b>
<b>Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А.</b> Рақамли трансформация шароитида энгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	<b>396</b>
<b>Sarkarov S.Z.</b> O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	<b>401</b>
<b>Minojidinova N.M.</b> Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	<b>406</b>
<b>Ruzmetova I.Y.</b> Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	<b>410</b>
<b>Qudratov D., Ismoilov A.</b> Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	<b>414</b>
<b>Qodirov H.D.</b> Soliq ma’uriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	<b>417</b>
<b>Kinjayev K.N.</b> Banklarda kreditlar tasnifi yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	<b>421</b>
<b>Макушина А.Ю.</b> Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	<b>424</b>
<b>Rejarov X.X., Oxunjonova K.K.</b> Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	<b>430</b>
<b>Махкамова Н.С.</b> Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития .....	<b>434</b>
<b>Avilov N., Muhammadova G.</b> Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	<b>441</b>
<b>Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S.</b> O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	<b>444</b>
<b>Yusupova M.B.</b> Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	<b>447</b>
<b>Toshpo‘latov M.A.</b> Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	<b>452</b>
<b>Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H.</b> Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	<b>458</b>
<b>Хамракулов С.М.</b> Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	<b>461</b>
<b>Zayavitdinova N.M.</b> Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	<b>465</b>
<b>Turg‘unov T.S.</b> O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	<b>469</b>
<b>Ботирова З.Қ.</b> Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	<b>475</b>
<b>Бегимова Н.К.</b> Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	<b>481</b>

ekstremal hodisalardan tashqari, oldindan aytib bo‘lmaydigan iqlim muhitining xavflariga alohida e‘tibor qaratadi. Shuningdek, tahlillar Markaziy Osiyo mintaqasini global o‘rtacha ko‘rsatkichga nisbatan 25–30 foiz tezroq isib borayotgan hamda suv va energetika infratuzilmasi jihatidan yuqori darajada zaif hudud sifatida tavsiflaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. [https://en.wikipedia.org/wiki/Stern\\_Review](https://en.wikipedia.org/wiki/Stern_Review)
2. [https://www.oecd.org/en/publications/2025/11/the-climate-action-monitor-2025\\_aed0c4bb/full-report/how-vulnerable-are-countries-to-climate-risks\\_92df65fe.html?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.oecd.org/en/publications/2025/11/the-climate-action-monitor-2025_aed0c4bb/full-report/how-vulnerable-are-countries-to-climate-risks_92df65fe.html?utm_source=chatgpt.com)
3. [https://www.eea.europa.eu/en/analysis/indicators/economic-losses-from-climate-related?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.eea.europa.eu/en/analysis/indicators/economic-losses-from-climate-related?utm_source=chatgpt.com)
4. [https://uza.uz/en/posts/uzbekistans-role-in-overcoming-climate-challenges\\_543648?utm\\_source=chatgpt.com](https://uza.uz/en/posts/uzbekistans-role-in-overcoming-climate-challenges_543648?utm_source=chatgpt.com)
5. <https://share.google/MVHZIu43UwTtwhmvO>
6. <https://share.google/TAON0EgO2LiJzdwM4>

**UDK:336.3**

**DAVLAT ICHKI VA TASHQI QARZLARINING IJOBIY VA SALBIY JIHLARI  
TAHLILI**

**АНАЛИЗ ПОЗИТИВНЫХ И НЕГАТИВНЫХ АСПЕКТОВ ВНУТРЕННЕГО И  
ВНЕШНЕГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ДОЛГА**

**ANALYSIS OF THE POSITIVE AND NEGATIVE ASPECTS OF DOMESTIC AND  
EXTERNAL STATE DEBT**

**Umurzakova Mo‘tabarxon Nodir qizi**

“Moliya va kredit” kafedrasida dosenti, PhD O‘zbekiston Milliy universiteti  
ORCID: 0009-0002-2279-9629

**Gulahmadov Shahboz Akbarovich**

O‘zMU, Iqtisodiyot fakulteti “Moliya” ixtisosligi 1- kurs magistranti

**Annotasiya**

Ushbu maqolada davlatning ichki va tashqi qarzlarning iqtisodiyotga ta'siri, ularning ijobiy va salbiy jihatlari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda davlat qarzining iqtisodiy o‘shish, inflyasiya, xususiyl investisiyalar hamda moliyaviyl barqarorlikka ko‘rsatayotgan ta'siri nazariyl va empirik tahlillar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari davlat qarzi barqarorligini ta'minlash bo‘yicha ilmiyl-amaliyl xulosa va takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** davlat qarzi, ichki qarz, tashqi qarz, iqtisodiy o‘shish, fiskal siyosat, qarz barqarorligi.

В данной статье проведён комплексный анализ влияния внутреннего и внешнего государственного долга на экономику, а также рассмотрены его положительные и отрицательные аспекты. В исследовании на основе теоретического и эмпирического анализа раскрыто влияние государственного долга на экономический рост, инфляцию, частные инвестиции и финансовую устойчивость. Полученные результаты способствуют выработке научно-практических выводов и рекомендаций, направленных на обеспечение устойчивости государственного долга.

**Ключевые слова:** государственный долг, внутренний долг, внешний долг, экономический рост, фискальная политика, долговая устойчивость.

This article provides a comprehensive analysis of the impact of domestic and external public debt on the economy, highlighting both its positive and negative aspects. The study examines the effects of public debt on economic growth, inflation, private investment, and financial stability using theoretical and empirical approaches. The findings contribute to the development of practical policy recommendations and scientific conclusions aimed at ensuring public debt sustainability.

**Keywords:** public debt, domestic debt, external debt, economic growth, fiscal policy, debt sustainability.

Hozirgi global iqtisodiy rivojlanish sharoitida davlat qarzlari masalasi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, byudjet siyosatining samaradorligini oshirish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, davlatning ichki va tashqi qarzlarni jalb etish, ularni boshqarish hamda iqtisodiyotga ko'rsatayotgan ta'sirini baholash masalalari jahon iqtisodiy adabiyotida ham, milliy iqtisodiy tadqiqotlarda ham dolzarb ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022–2023 yillarda dunyo bo'yicha davlat qarzlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati o'rtacha 92–95 foizni tashkil etgan. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda mazkur ko'rsatkich yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Masalan, AQShda davlat qarzi 2023 yilda YaIMga nisbatan 118–120 foiz, Yaponiyada esa 250 foizdan ortiq darajani tashkil etgan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ushbu ko'rsatkich o'rtacha 85–90 foiz atrofida bo'lib, ayrim davlatlarda (Italiya, Gresiya) 140 foizdan oshgan holatlar kuzatilmoqda [1].

Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat qarzlari nisbatan pastroq bo'lsa-da, tashqi qarz ulushining yuqoriligi moliyaviy barqarorlikka qo'shimcha xavf tug'diradi. Xususan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, past va o'rta daromadli mamlakatlarda tashqi qarz 2010 yilda YaIMning 28 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 45 foizga yaqinlashgan [2].

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda davlat qarzlari hajmi o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Moliya vazirligi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yil yakunida O'zbekiston davlat qarzi YaIMga nisbatan taxminan 35–38 foizni tashkil etgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich xalqaro me'yorlar bo'yicha nisbatan xavfsiz daraja hisoblanadi. Shu bilan birga, tashqi qarz ulushining yuqoriligi valyuta kurslari o'zgarishi va tashqi iqtisodiy shoklarga sezgirlikni oshirishi mumkin [3].

Empirik tadqiqotlar (Reinhart–Rogoff, IMF, CBO) natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat qarzining YaIMga nisbati 90–100 foizdan oshgan holatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha 1–2 foiz punktga pasayadi. Kanada misolida olib borilgan tahlillar esa 1990-yillarda qarz–YaIM nisbati 100 foizga yaqinlashgan davrda iqtisodiy o'sishning sekinlashganini, keyinchalik fiskal islohotlar natijasida ushbu ko'rsatkich pasayishi bilan iqtisodiy barqarorlik tiklanganini ko'rsatadi [4].

Shu bilan birga, ichki qarzlarni orqali moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish, davlat qimmatli qog'ozlari bozorini kengaytirish hamda ichki moliya resurslaridan samarali foydalanish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda milliy iqtisodiyot sharoitiga mos optimal qarz siyosatini shakllantirish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur maqolada davlat ichki va tashqi qarzlarning iqtisodiy mohiyati, ularning ijobiy va salbiy jihatlari hamda O'zbekiston iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan ta'siri xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil asosida o'rganiladi. Bu esa davlat qarzlarni boshqarish siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning davlat tashqi qarzlari hamda ularni samarali boshqarish masalalari yuzasidan iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha nazariy va amaliy yondashuvlar ilgari surilgan. Davlat tashqi qarzining zarurligi, uning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, shuningdek, ijobiy va salbiy oqibatlari iqtisodiy adabiyotlarda keng muhokama qilinib kelinmoqda.

Yetakchi iqtisodchi olimlardan Carmen Reinhart va Kenneth Rogoff o'z tadqiqotlarida davlat qarzini iqtisodiy inqirozlar davrida barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim moliyaviy instrument sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, “qarz yig'ish iqtisodiy inqirozlar sharoitida

barqarorlikni ta'minlash uchun zarur vosita bo'lishi mumkin, biroq qarzning davomiyligi doimo muhim ahamiyat kasb etadi". Shuningdek, olimlar "agar davlat qarzi samarali boshqarilsa, mamlakat iqtisodiy bo'ronlarni nisbatan yengil yengib o'tishi mumkin, ammo noto'g'ri boshqarilgan qarz ko'pincha iqtisodiy tanazzul yoki uzoq muddatli turg'unlikka olib keladi" degan xulosani ilgari suradilar [5].

Reinhart va Rogoff davlat qarzining o'sishi bilan moliyaviy inqirozlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy asosda tahlil qilib, qarzning iqtisodiy o'sishga ta'sirini empirik ma'lumotlar asosida baholaganlar. Xususan, ular 66 mamlakat bo'yicha qariyb 800 yillik tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilish asosida davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbati 90 foizdan oshgan holatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari sezilarli darajada sekinlashishini aniqlaganlar. Olimlar davlat qarzini inqiroz sharoitida qo'llaniladigan moliyaviy vosita sifatida talqin qilar ekanlar, davlatlarning qarz siyosati uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka jiddiy xavf tug'dirishi mumkinligini ham alohida ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, ular davlat qarzlari tarixining siklik xususiyatini, inqirozlardan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayonlarining murakkabligini hamda qarz masalasining milliy iqtisodiy siyosatda doimiy dolzarbligini ko'rsatib o'tganlar.

Davlat qarziga nisbatan boshqacha yondashuv John Maynard Keynes nazariyasida o'z ifodasini topgan. Keynesning fikricha, "davlat qarzi to'liq bandlikni saqlash uchun zarur bo'lib, hukumatlar iqtisodiy inqiroz davrida iqtisodiy faollikni rag'batlantirish maqsadida qarz olish va uni faol sarflashga tayyor bo'lishlari lozim" [6]. U davlat qarzini yalpi talabni boshqarish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim moliyaviy vosita sifatida baholagan.

Keynes nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy inqiroz sharoitida davlatning faol moliyaviy aralashuvi zarur bo'lib, qarz mablag'lari hisobidan davlat xarajatlarini oshirish yalpi ichki mahsulot hajmining ko'payishiga, iqtisodiy o'sishning tiklanishiga hamda yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv davlat qarzini qisqa muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi va iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi samarali instrument sifatida ko'radi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham davlat qarzlari va ularni boshqarish masalalari bo'yicha o'z ilmiy qarashlarini ilgari surib kelmoqdalar. Jumladan, O.S. Komolov va X.X. Imomovning "Davlat qarzlari boshqarish" nomli darsligida davlat qarzining nazariy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilingan [7]. Mualliflar ta'kidlashicha, davlat qarzi nazariyasi, avvalo, qarzning iqtisodiy oqibatlarini ko'rib chiqqanlar.

Shuningdek, iqtisodchi olimlar A.A. Shernayev va O.S. Komolov o'z tadqiqotlarida davlat qarzi masalasiga klassik iqtisodiy qarashlar evolyutsiyasi nuqtayi nazaridan yondashadilar [8]. Ularning fikricha, agar davlat qimmatli qog'ozlarini sotib oluvchilar moliyaviy jihatdan zarar ko'rmasalar, u holda qarz yukining asl tashuvchisi kim ekanligi masalasi dolzarb bo'lib qoladi. Ushbu savolga javob topish uchun davlat qarziga oid klassik nazariy qarashlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish zarur. Mualliflar, shu bilan birga, davlat qarz mablag'larini faqat iste'mol xarajatlariga emas, balki jamiyat ravnaqi, iqtisodiy o'sish va infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirish imkoniyatiga ham e'tibor qaratadilar.

Bundan tashqari, D.X. Suyunovning ta'kidlashicha, davlat tomonidan olingan tashqi yoki ichki qarz mablag'lari, agar ular maqsadli va samarali yo'naltirilsa, iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi omil sifatida ijobiy baholanishi mumkin. Ya'ni, qarzning o'zi emas, balki uning qanday yo'nalishlarda va qanday samaradorlik bilan sarflanishi muhim hisoblanadi [9].

Mazkur ilmiy ishda qo'yilgan muammoni har tomonlama o'rganish maqsadida tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanildi. Ushbu metodlar davlat qarzlari boshqarishning nazariy asoslari hamda ularning iqtisodiy oqibatlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Davlatning ichki va tashqi qarzlari iqtisodiyotga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatib, bir tomondan iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi imkoniyatlarni, ikkinchi tomondan esa makroiqtisodiy barqarorlikka tahdid soluvchi jiddiy xavflarni o'z ichiga oladi. Qarzning iqtisodiy ta'siri uning hajmi, tarkibi, jalb etish shartlari, maqsadli yo'naltirilishi hamda umumiy makroiqtisodiy muhit bilan bevosita bog'liqdir.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbati hamda iqtisodiy o‘shish sur‘atlari o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi. Ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qarzning me‘yoriy darajada saqlanishi iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlasa, uning me‘yordan ortishi iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining pasayishiga olib keladi.

Empirik iqtisodiy tahlillar (Reinhart–Rogoff, IMF, World Bank va OECD tadqiqotlari) natijalariga asoslanib, davlat qarzining YaIMga nisbati muayyan kritik chegaralardan (80–100 foiz) oshganda iqtisodiy o‘shishga salbiy ta‘sir kuchayishi aniqlangan. Ayniqsa, yuqori qarz yuki foiz stavkalarining o‘shishi, xususiy investisiyalarning qisqarishi va inflyasion bosimning ortishiga olib kelishi isbotlangan.

Fiskal barqarorlik tahlili doirasida davlat byudjeti defitsiti, qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari va byudjet xarajatlarining tuzilmasi o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlarining ortishi ijtimoiy va investision xarajatlarni cheklab, iqtisodiy o‘shish salohiyatini pasaytiradi. Investision ta‘sir tahlili (crowding out effekti) asosida davlat qarzining xususiy sektor investisiyalariga ta‘siri baholandi. Ushbu tahlillar davlat qarzining ortishi moliya bozorida foiz stavkalarini oshirib, xususiy investisiyalarni qisqartiradi va natijada iqtisodiy faollikni sekinlashtiradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat qarzlari samarali boshqarilgan holda iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlashi mumkin, biroq qarz yukining me‘yordan oshib ketishi salbiy makroiqtisodiy oqibatlarni kuchaytiradi. Davlat qarzlarining ijobiy va salbiy jihatlari

**1-jadval**

**Davlat ichki va tashqi qarzlarining ijobiy jihatlari**

<b>Yo‘nalish</b>	<b>Iqtisodiy ta‘sir</b>
<b>Iqtisodiy o‘shish</b>	Infratuzilma, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohasiga investisiyalar orqali uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiradi
<b>Fiskal egiluvchanlik</b>	Tabiiy ofatlar, pandemiya va iqtisodiy inqirozlar davrida davlat xarajatlarini oshirish imkonini beradi
<b>Moliya bozorlari rivoji</b>	Davlat obligatsiyalari bozorining shakllanishi va moliyaviy instrumentlar diversifikatsiyasiga xizmat qiladi
<b>Ijtimoiy barqarorlik</b>	Ijtimoiy dasturlar va aholini qo‘llab-quvvatlash choralari moliyalashtirishga imkon yaratadi

Jadval 1 da keltirilgan ma‘lumotlar davlat ichki va tashqi qarzlarining iqtisodiy rivojlanishdagi ijobiy jihatlarni ifodalaydi. Mazkur jihatlar davlat qarzlarining samarali va maqsadli qo‘llanilishi sharoitida iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, fiskal siyosatning egiluvchanligini oshirish hamda moliya bozorlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Biroq davlat qarzlarining iqtisodiyotga ta‘siri faqat ijobiy omillar bilan cheklanib qolmaydi.

Shu sababli, davlat qarzlarining haddan tashqari o‘shishi va ularning samarasiz boshqarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan salbiy makroiqtisodiy oqibatlarni ham kompleks tahlil qilish zarur. Ana shu maqsadda, Jadval 2 da davlat qarzlarining salbiy jihatlari, ya‘ni qarz yukining ortishi natijasida yuzaga keladigan foiz stavkalarining o‘shishi, xususiy investisiyalarning qisqarishi, inflyasiya bosimining kuchayishi hamda moliyaviy barqarorlikka tahdid soluvchi xavflar tizimli ravishda aks ettirilgan.

**2-jadval**

**Davlat qarzlarining salbiy jihatlari**

<b>Xavf turi</b>	<b>Iqtisodiy oqibat</b>
<b>Crowding out effekti</b>	Davlat qarzi o‘shishi natijasida foiz stavkalari oshib, xususiy investisiyalar qisqaradi
<b>Inflyasiya bosimi</b>	Qarz-YaIM nisbati yuqori bo‘lganda pul massasi oshishi inflyasiyani kuchaytiradi
<b>Byudjet bosimi</b>	Qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari boshqa ustuvor sohalarni moliyalashtirishni cheklaydi
<b>Moliyaviy inqiroz xavfi</b>	Haddan tashqari yuqori qarz davlat moliyaviy barqarorligiga tahdid soladi
<b>Avlodlararo yuk</b>	Kelajak avlodlar zimmasiga yuqori soliq yuki yuklanadi

Empirik tadqiqotlar, xususan Reinhart va Rogoff (2010), Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) hamda AQSh Kongressi Byudjet boshqarmasi (CBO) tomonidan o‘tkazilgan tahlillar natijalariga ko‘ra, AQSh va Kanada misolida davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbati 90–100 foiz va undan yuqori darajalarga yetgan holatlarda iqtisodiy o‘shish sur‘atlari sezilarli darajada sekinlashgan. Mazkur tadqiqotlarda yuqori qarz yuki foiz stavkalarining o‘shishi, xususiylar investisiyalarning qisqarishi (crowding out effekti) va byudjet resurslarining qarzga xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilishi orqali iqtisodiy o‘shishga cheklovchi omilga aylanishi ilmiy asoslangan.

Yuqorida keltirilgan empirik tadqiqotlar natijalari davlat qarzining haddan tashqari o‘shishi iqtisodiy o‘shishga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Bu esa davlat qarzlarini faqat jalb etish emas, balki ularni samarali, barqaror va maqsadli boshqarish zarurligini taqozo etadi. Ayniqsa, qarz yukining kritik chegaralardan oshib ketishi bilan bog‘liq xavflarni yumshatish uchun kompleks qarz boshqaruvi strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, Jadval 3 da davlat qarzini samarali boshqarishning asosiy yo‘nalishlari tizimli ravishda umumlashtirib berilgan.

**3-jadval**

**Davlat qarzini samarali boshqarishning asosiy yo‘nalishlari**

<b>Yo‘nalish</b>	<b>Mazmun</b>
<b>Qarz barqarorligi</b>	Qarz–YaIM nisbatini tahlil qilish (ko‘plab tadqiqotlarda 100% kritik chegara deb baholanadi)
<b>Fiskal tartib-intizom</b>	Byudjet defitsitini qisqartirish va daromadlar bazasini kengaytirish
<b>Ishlab chiqaruvchi investisiyalar</b>	Qarz mablag‘larini infratuzilma, ta’lim, innovatsiyalarga yo‘naltirish
<b>Makroiqtisodiy barqarorlik</b>	Inflyasiya va foiz stavkalarini nazorat qilish
<b>Shaffoflik</b>	Qarz olish va sarflash jarayonlarida hisobdorlikni oshirish
<b>Tashqi qarz xavflari</b>	Valyuta kurslari va tashqi shoklar xavfini diversifikatsiya qilish

Tahlil natijalari davlat qarzining ikki tomonlama xususiyatini yaqqol namoyon etadi. Bir tomondan, qarz oqilona va maqsadli qo‘llanilgan taqdirda iqtisodiy o‘shish, infratuzilma rivoji hamda favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berish uchun samarali instrument hisoblanadi. Ikkinchi tomondan esa, qarzning me’yordan ortishi inflyasiya, yuqori foiz stavkalari, xususiylar investisiyalarning qisqarishi va moliyaviy inqiroz xavfini kuchaytiradi.

Ayniqsa, “qarzning ahamiyati yo‘q” degan zamonaviy pul nazariyasi (MMT) qarashlari rivojlanayotgan mamlakatlar uchun nazariy va amaliy jihatdan bahsli hisoblanadi, chunki institusional zaifliklar va valyuta xavflari bunday yondashuvni cheklaydi.

Mazkur tahlil davlat ichki va tashqi qarzlarining iqtisodiy o‘shish, inflyasiya, investisiyalar va moliyaviy barqarorlikka ta’sirini kompleks baholash imkonini berdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, davlat qarzi iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi muhim moliyaviy resurs bo‘lishi mumkin, biroq uning haddan tashqari o‘shishi iqtisodiy o‘shishni sekinlashtiradi va moliyaviy xavflarni kuchaytiradi.

Samarali qarz boshqaruvi, fiskal tartib-intizom va ishlab chiqaruvchi investisiyalarga ustuvorlik berish davlat qarzi barqarorligini ta’minlashning asosiy shartlari hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. International Monetary Fund. (2023). World Economic Outlook Database: October 2023. Washington, DC. World Bank. (2023). International Debt Statistics 2023. Washington, DC. OECD. (2023). General government debt. Paris.
2. Всемирный банк. International Debt Statistics 2023. — Washington, DC : World Bank Group, 2023. — URL: <https://databank.worldbank.org/source/international-debt-statistics> (murojaat sanasi: 2024).
3. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Staff Report for the Article IV Consultation. — Washington, DC : IMF, 2023. — URL: <https://www.imf.org> (murojaat sanasi: 2024).

4. Reinhart C. M., Rogoff K. S. Growth in a Time of Debt // American Economic Review. — 2010. — Vol. 100, No. 2. — P. 573–578.
5. Reinhart C. M., Rogoff K. S. This time is different: Eight centuries of financial folly. – princeton university press, 2009.
6. Keynes J. M. The general theory of employment //The quarterly journal of economics. – 1937. – T. 51. – No. 2. – C. 209-223.
7. O.S. Komolov, X.X. Imomov. Davlat qarzlarini boshqarish. (Darslik). – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. – 8-bet.
8. A.A. Shernaev, O.S. Komolov. “Davlat qarzlarini boshqarish” (Darslik). – T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 12-bet.
9. D.X. Suyunov, E.A. Xoshimov. Korporativ boshqaruv: muammolar va zamonaviy yechimlar. Monografiya. – 218 b., 2018.

**УДК: 330.342:334.012(575.1)**

**O‘ZBEKISTONDA MULKCHILIK MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI:  
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA**

**ТРАНСФОРМАЦИЯ ОТНОШЕНИЙ СОБСТВЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ: КАК  
ФАКТОР РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА**

**TRANSFORMATION OF OWNERSHIP RELATIONS IN UZBEKISTAN: AS A FACTOR  
IN THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP**

**Xasanov Ilyos Mahmudovich**

Oziq-ovqat texnologiyalari va muhandisligi xalqaro instituti  
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilish hamda uning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o‘rnini tadqiq etildi. Tadqiqot jarayonida mulkchilik tarkibining iqtisodiy samaradorligi, xususiylashtirish va investitsion jozibadorlik dinamikasi, hududlar kesimida faol kichik korxonalar va mikrofirmalar soni hamda kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi qiyosiy va statistik tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiy samaradorligi, mulkchilik munosabatlari, mulk shakllari, transformatsiya, tadbirkorlik faoliyati, xususiylashtirish.

В данной статье анализируются процессы трансформации имущественных отношений и их роль в развитии малого бизнеса и частного предпринимательства. В ходе исследования проведен сравнительный и статистический анализ экономической эффективности структуры собственности, динамики приватизации и инвестиционной привлекательности, количества действующих малых предприятий и микропредприятий по регионам, а также динамики основных показателей малого предпринимательства.

**Ключевые слова:** экономическая эффективность, отношения собственности, формы собственности, трансформация, предпринимательская деятельность, приватизация.

This article analyzes the processes of transformation of ownership relations and their role in the development of small business and private entrepreneurship. In the course of the research, a comparative and statistical analysis of the economic efficiency of the ownership structure, the dynamics of privatization and investment attractiveness, the number of active small enterprises and